

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERISTETI**

**“INNOVATSION TA’LIM”**

**KAFEDRASI**

Qo‘lyozma huquqida

*UDK: 378: 6II2.15.7*

**SHOFIDDINOVA ZULFIZAR IXTIYOR QIZI**

**“TA’LIMNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA OLIY TA’LIM  
XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISH”**

**70112401 – Professional ta’lim nazariyasi va metodikasi (iqtisodiyot)  
mutaxassisligi bo‘yicha**

**magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan**

**D I S S Y E R T A S I Y A**

**Ilmiy rahbar:  
p.f.d., prof. M. Xakimova**

**TOSHKENT – 2023**

Magistrlik dissertatsiya ishi "Innovatsion ta'lim" kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan.

35 -sonli bayonnoma " 28 " aprel 2023 y.



IMZONI TASDIQLAYMAN TDIU  
INSON RESURSLARINI BOSHQARISH  
BO'LIMI BOSHIG'I S. XASANOV

*(Handwritten signature)*  
(imzo)

Kafedra mudiri Xakimova M. F

imzo

" 29 " 05 2023 y

Ilmiy rahbar: prof. M.F.Xakimova

imzo

" 29 " 05 2023 y

Talaba: Z.Shofiddinova

imzo

" 29 " 05 2023 y

Dissertatsiya Raqamli iqtisodiyot fakultetida 2023 yil

No 4 raqami bilan ro'yxatga olingan.

" 29 " 05

## ANNOTATSIYA

Ushbu dissertatsiya ishida ta'lim tizimini rivojlantirish jarayonida mukammal kadrlar tayyorlash tizimi iqtisodiyotni o'sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish uchun asosiy yo'nalishlardan biri ta'lim xizmati bozorini rivojlantirish masalalari ko'rilgan. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida ta'lim tizimida sog'lom iqtisodiy raqobat muhitini va ta'lim xizmati bozorini faoliyat ko'rsatish mexanizmini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Respublikamizda ta'lim xizmatlari bozorini davlat tomonidan qo'llab – quvvatlash maqsadida huquqiy asoslari va ularni takomillashtirish ustuvor yo'nalishlari ishlab chiqilgan.

## KALIT SO'ZLAR

*Ta'lim xizmatlari, ta'lim sifati, ta'lim bozori, oliy ta'lim muassasasi, moliyalashtirish, ta'lim iste'molchisi.*

## Summary

In this dissertation work, one of the main directions of the development of the education service market, one of the main directions of the development of the excellent personnel training system to meet the growing needs of the economy, was considered. In the conditions of modernization of the economy, it is necessary to improve the environment of healthy economic competition in the education system and the mechanism of operation of the educational service market. In order to support the market of educational services in our republic, legal bases and priorities for their improvement have been developed.

## KEY WORDS

*Education services, education quality, education market, higher education institution, financing, education consumer.*

## MUNDARIJA

Annotatsiya.....	3
Mundarija.....	4
Keltirilgan jadvallar ro'yxati.....	6
Keltirilgan rasmlar ro'yxati.....	7
Keltirilgan qisqartmalar.....	8
<b>I BOB.    KIRISH.....</b>	<b>9</b>
1.1.    Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....	9
1.2.    Tadqiqot maqsadi va vazifalari.....	10
1.3.    Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari .....	11
1.4.    Tadqiqot obyekti va predmeti.....	11
1.5.    Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati.....	11
1.6.    Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.....	12
<b>II BOB.    ADABIYOTLAR SHARHI.....</b>	<b>13</b>
2.1.    Kirish.....	13
2.2.    Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar sharhi.....	20
2.3.    Mavzuga oid mahalliy me'yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi.....	27
2.4.    Xulosa.....	30
<b>III BOB.    METODOLOGIYA.....</b>	<b>32</b>
3.1.    Tadqiqot dizayni.....	32
3.2.    Ma'lumotlarni to'plash jarayoni.....	32
3.3.    Tahlil uchun qo'llaniladigan usullar.....	33
3.4.    Tadqiqotni o'tkazish uchun zarur sharoitlar.....	33
3.5.    Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi.....	33
3.6.    Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy	35

	natijalar.....	
<b>IV BOB.</b>	<b>TAHLIL VA NATIJALAR.....</b>	<b>36</b>
4.1.	Tajriba – sinov ishlarini tashkil etish va o`tkazish jarayoni bosqichlarini rejalashtirish.....	36
4.2.	Kadrlar bozorini rivojlantirishda ta'lim xizmatlari iqtisodiy munosabatlarning tahlili.....	43
4.3.	Tahlillardan olingan natijalar sharhi.....	61
<b>V BOB.</b>	<b>XULOSA.....</b>	<b>67</b>
5.1.	Tadqiqot savoliga tegishli natijalarning qisqacha ifodasi .....	67
5.2.	Tadqiqotning asosiy taklif va tavsiyalari.....	68
5.3.	Tadqiqot cheklovlari va kelgusi tadqiqotlar uchun takliflar....	69
	<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>	<b>71</b>

## I - BOB. KIRISH

### 1.1. Dissertasiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.

Bizning respublikamizda mustaqillik yillarida kadrlar tayyorlashning yangi tizimi yaratilib, mutaxassislar sifatiga qo'yiladigan zamonaviy talablarga javob beradigan yuqori malakali, raqobatbardosh, tanlagan ta'lim yo'nalishi bo'yicha mustaqil ishlay oladigan, mamlakatning ilmiy-texnik, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga munosib hissa qo'shishga qodir, shahdam qadamlar ila ilgariylayotgan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot sharoitiga moslasha oladigan, yuksak madaniy va ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega bo'lgan mutaxassislar tayyorlash izchil amalga oshirilmoqda. Kadrlar tayyorlashda yanada yuqori natijalarga erishish uchun ta'limning yakuniy maqsadlarini ongli anglash, uni takomillashtirish va mazmunan zamonaviylashtirish, ayniqsa, o'qitishning interfaol metodlari va zamonaviy didaktik vositalarini qo'llash va rivojlantirish borasida keng qamrovli maqsadli ishlarni amalga oshirish ta'lim-tarbiya sohasidagi strategik vazifalarning asosiy yo'nalishlari bilan belgilanadi. Bugungi kunda ta'limni raqamlashtirishda oliy ta'lim muassasalarida ta'limni tashkil etishning dasturiy-metodik ta'minoti, mutaxassislarni tayyorlashning milliy va jahon ta'lim tajribasiga asoslangan tashkiliy-pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish orqali mamlakatimiz intellektual resurslari potensialini oshirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasiga [1] muvofiq "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish" bugungi kunda muhim vazifalar hisoblanadi.

Ta'lim tizimini isloh qilish jarayonida ta'lim xizmati bozorini rivojlantirish, uning mehnat bozori bilan aloqasini yetarlicha emasligi, kadrlar tayyorlash va moliyalashtirish sohasida o'quv yurtlari o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, davlat tomonidan tartibga solish bilan bozor mexanizmlarini uyg'unlashuvi, malakali kadrlar tayyorlash tizimi iqtisodiyotni o'sib borayotgan